

YOSHLAR-TA'LIM-KELAJAK

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi*

Gullola To'ymurodova Normurod qizi

e-mail: gultuymurodova0722@gmail.com

Annotatsiya: “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” munosabati bilan yaratilishi ko’zda tutilgan yangiliklar; ta’lim tiizmi va uni texnologik jarayonlar bilan boyitish; dunyo tajribasini o’rganish va shu orqali sifat samaradorligini oshirish; bugungi kundagi ayrim ta’lim sohasidagi ayrim bo’shliqlar va ularga yechimlar.

Kalit so’zlar: Uchinchi Renessans, Xorazmiy, Beruniy, Ulug’bek, Bobur, Navoiy, Ibn Sino, ta’lim tizimi, korrupsiya, taraqqiyot, modul, “4+2” , Finlandiya

Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo’yg’an ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avvalo, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g’oyamizning asosiy ustunidir. Sh. Mirziyoyev

Bugun 20-dekabr 2022-yil yakuni arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkentdagi Kongress-xollda parlamentga yo’llagan murojaatnomasida yangi 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlashni taklif qildilar. Ushbu taklif nafaqat yig’ilish qatnashchilari, balki oynai jahon orqali kuzatib turgan xalqimiz tomonidan juda katta quvonch va olqishlar bilan qo’llab-quvvatlandi. Shundan ham ko’rinib turibdiki, bugungi kunda davlatimiz o’z oldiga qo’yg’an ustuvor vazifalardan biri aynan yoshlar, ularning ta’lim-tarbiyasi, kelajagi masalasidir. Buni o’tgan 2 yil sarhisobi bo’yicha ko’radigan bo’lsak, eng ko’p

sarmoya tikilgan soha aynan ta'lim sohasi hisoblanadi. Dunyo tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi. Biz bu sohada eng birinchi investitsiyani maktabgacha ta'lim muassasasidan boshladik. Chunki, o'sib kelayotgan avlodning komil inson bo'lib yetishishida maktabgacha ta'lim muassasasi va maktabning roli beqiyos. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir",- deb bejisa aytishmagan. Kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 4 yil davomida 2 barobar ortib, 60 foizga yetdi. Shu bilan bir qatorda pedagog kadrlar sifatini oshirish va ular zahirasini kengaytirishga juda katta e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilish va shu orqali kelajak avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Bu yo'lda qator islohotlar birin-ketinlik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'limga qamrov ko'rsatkichi yildan yilga oshib borayotgani, imtihonlar jahon standartlariga muvofiq tashkil etilayotgani, ta'lim jarayonlarida ilg'or texnologiyalardan foydalanilayotganligi va baho emas, balki, ball tizimida ishlaydigan kredit –modul tizimining joriy etilgani ta'lim sifati oshishiga yuqori ta'sir ko'rsatdi. Eng quvonarlisi esa, bu ta'limda korrupsiyaning nisbatan katta qismi cheklanganligi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri butkul bu holat bartaraf etildi, ta'lim tizimi korrupsiyadan to'la-to'kis xoli bo'ldi deya olmaymiz, ammo bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan juda katta sezilarli darajada o'zgardi.

“El aziz-inson aziz” shu bizning shior

Yurtimizda har sohada imkoniyatlar bisyor

Taraqqiyot poydevorin qilib mustahkam

Buyuk maqsad yo'lida boraylik shahdam

Aziz do'stim! Kel endi qo'lni qo'lga beraylik

Ezgu maqsadlar tomon doim olg'a boraylik

Taraqqiyot yo'lidan korrupsiya yo'qolsin!

Yangi O'zbekistonda yaxshilar nomi qolsin!

Umid qilamizki, yaqin besh yillar ichida ta'lim-korrupsiyadan batamom forig' sohaga aylanadi. Oliy ta'limda pedagog kadrlar va professor o'qituvchilarning zahirasini shakllantirish va ular malakasini oshirish uchun xorijiy davlatlarda malaka oshirish xarajatlarini uchun grant mablag'lari tashkil etilgan bo'lib, bunda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy oliy o'quv yurtarining magistratura va doktoranturasida o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshirilganligi quvonarli hol. Bugungi kunda ayol professorlar soni va sifatini oshirish maqsadida ham ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, magistraturada shartnoma asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning shartnoma pullari davlat hisobidan to'lab berilishi bu albatta jamiyatda xotin-qizlarning o'rni va mavqeyi alohida ahamiyatli ekanligidan dalolatdir.

"4+2" tizimi bu nima degani o'qishni amaliyot bilan birga uzviylikda olib borish. 2022-yilda joriy etilgan ushbu tizim bo'lajak kadrlarning salohiyati va imkoniyatlari oshishiga yordam bermoqda. Chunki, nazariy egallangan bilimlar amalda qo'llanilganda samaradorlik va malaka oshadi. Keyinchalik ko'nikmaga aylanib, oliy ta'limni bitirishi arafasida tayyor xodim bo'lib yetishadi. Bundan tashqari pedagogika oliygohi talabalariga 2-kursdan qonuniy hujjatlar asosida maktablarda ishlash uchun ruxsat berilganligi ham katta yutuqlardan hisoblanadi. Endilikda, talabalar ham o'qib, ham ishlash imkoniga ega. Yana bir yaratilgan qulaylik va imkoniyatlardan biri bu "Akademik mobilik" dir. Bu nimadegani? Akademik mobillik bu bir ta'lim muassasasidan boshqa hudud ta'lim muassasasida o'z yo'nalishi bo'yicha 1 haftadan 3 oygacha yoki 1 o'quv semestr mobaynida tahsil olish imkonini beradi. Bundan ko'zlangan maqsad talabaning malaka va o'quv uslub, metodlar almashinish, boshqa ta'lim muassasasi tizimini o'rganish yangiliklarni o'rganish uchun sharoit bo'ladi. Bunda xorijiy kadr almashinish va professor o'qituvchilarni almashinib malaka oshirish ham nazarda tutilgan. Bugunga kelib amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lami qanchalik sezilarli bo'lsada, ammo ba'zi bo'shliqlar haqida so'z yuritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Tanqid-kelajak mevasi. Ta'lim tizimidagi bo'shliq haqida gapirmoqchiman. Bular: oliy ta'limni

tamomlagan talabaning ishga joylashish masalasi. Aytishingiz mumkin, sifatli kadrğa hamisha ish topiladi deb, lekin o'rtacha o'zlashtirgan talabachi? Hayotda besh qo'l barobar emas, hamma ham o'z sohasining yetuk kadri bo'la olmaydi. Ular ertaga qanday ish topadi. Qanday maoshda ishlaydi? Keyingisi 30 ta o'quvchidan iborat sinflar. Bunda 1 ta o'qituvchi 45 minut davomida barcha o'quvchi bilan bir xilda ish olib borolmaydi. Bitta sinfda o'quvchilar soni maksimal 15 tagacha bo'lsa, bemalol shug'ullanish imkoni vujudga keladi. Bunda ta'lim sifati ham oshadi, ham bitiruvchi kadrlar ish o'rnini bilan ta'minlanadi. Bitta sinfda 30 ta o'quvchiga 1 ta o'qituvchi dars bergandan ko'ra, 15 tadan o'quvchiga 2 ta o'qituvchi dars o'tgani afzalroq meningcha. Yana bir muammolardan biri bu oliygohda yoki maktabda o'quvchi-talabalarni darsdan so'ng jalb qilish. O'zim guvohi bo'lgan va kuzatishlarim natijasi o'laroq, darsdan so'ng mashg'ulotlarga qolib, o'z ustida ishlagan, yoki tengdoshlari bilan darsdan tashqari vaqtda fikr almashgan talabalar va o'quvchilarning fikrlashi va erishadigan yutuqlari dars tugashi bilan uyga shoshiladigan talaba yoki o'quvchidan mutloq farq qiladi. Keling, dastavval bu holatning sababini aniqlashtirsak, keyin esa uning yechimiga to'xtalsak. Nima deb o'ylaysiz qachon o'quvchi yoki talaba darsni jon qulog'i bilan tinglaydi va darsdan keyingi mashg'ulotlarda faol qatnashishni istaydi? Qachonki oilada tinchlik bo'lsa va talaba, o'quvchining qorni to'q bo'lsa. Ko'p hollarda ertalabki o'qish semenasida o'qiydiganlar ertalab yaxshi ovqatlanmay chiqadi. Darsning 1-soati tugashi bilan ochlik hissini seza boshlaydi. Mablag' jihatdan yetarli sharoiti bo'lgan talaba ovqatlanib kuniga 15-20 ming so'mni sarflashi mumkin, ammo moliyaviy mablag' hammada ham bir xil emas va har kuni ovqatlanish uchun oilaviy sharoiti pul ajrata olmaydi. Bunda talaba qo'shimcha daromad topishga kirishadi va o'z sohasidan sekin asta uzoqlashib boradi. O'quvchilar esa tezda uyiga borish payida bo'ladi. Shundan so'ng qanchalik sharoit yaratmang, qancha ko'p investitsiya kiritmang bari besamar. Chunki, miya ishlashi uchun avvalo organizm kuchga to'la bo'lishi zarur. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har bir ta'lim muassasasida bog'chadan boshlab bolalarga avval ovqat tanovul qildirib, keyin ta'lim berishga

o'tiladi. Hamda dars mobaynida o'quvchiga to'liq erkinlik bergan holda dars mashg'ulotlari olib boriladi. Dars yakunida o'quvchilarga sinf xonasida uyqu vaqti tashkil etilgan bo'lib, bu 15 minutdan 30 minutgacha bo'lgan vaqt oralig'ida bo'lib o'tadi. Ana undan keyin yana dars mashg'ulotlariga qaytiladi. Bu tizim Finlandiya va Yaponiyada qo'llanilib, bu ularda ta'lim tizimining asosiy yutug'i hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda ham shu kabi imkoniyatlarni joriy etishimiz mumkin. Bunda oliygohda shartnoma to'lovi ichida ovqatlanish sharoitlarini yaratish mumkin. Maktablarda esa, davlat hisobidan tekin tushlik ovqatlanish oshxonalarini ishga tushirish lozim deb o'ylayman. Shundagina yaratyotgan sharoitlarimizning samaradorligi yanada oshadi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Kelajak avlod ta'lim-tarbiyasi davlatning ustuvor va bosh maqsadidir."

Yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va ta'lim berish yuzasidan ko'pgina davlatlar bilan qo'shma ta'lim loyihalari imzolanmoqda. Yuqoridagi islohotlarning tag zamirida yoshlar kelagi, ularning komil inson sifatida shakllanishi yotibdi. Zero, yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2021y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2022y
3. "Universitet 3.0" konsepsiyasi
4. Xalqaro baholash tizimi "PIRLS" dasturi . G. To'ymurodova , S. Turdiyev Toshkent 2022
5. "Milliy tizim" Toshkent 2019